

O‘ZBEK TILIDA DIREKTIV NUTQIY AKTLARNI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Majidova Zulayho Abdimuminovna,
Ingliz filologiyasi kafedrası v.b. dotsenti, (PhD),
Qo‘qon universiteti, Andijon filiali

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilida direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar, ularning qo‘llanilishi va struktur-semantik xususiyatlari xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, leksik vositalarning direktiv nutqiy aktning shakllanishidagi o‘ziga xos umumiy va xususiy jihatlari o‘zbek tilidagi badiiy, maishiy, media va siyosiy kabi turli diskurslardan olingan misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: direktiv nutqiy akt, imperative ma‘no, implitsit, eksplitsit, adresant, adresat, infinitive, modal fe‘llar.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы о лексических средствах, выражающих директивные речевые акты, их использование и структурно-семантические свойства в узбекском языке. Также общие и свойственные черты лексических средств в формировании директивного речевого акта были проанализированы на примерах узбекского языка взятых с разных дискурсов таких же как, литературный, бытовой, медиа и политический.

Ключевые слова: директивный речевой акт, императивное значение, имплицитный, эксплицитный, адресант, адресат, инфинитив, модальные глаголы.

Abstract. This article is focused on lexical means expressing directive speech acts in Uzbek language, their usage and structure-semantic features. Also, general and peculiar features of lexical means in formation of directives in Uzbek language were analyzed with the examples taken from literary, oral, media and politic discourses.

Key words: directive speech act, imperative order, implicit, explicit, addresser, addressee, infinitive, modal verbs.

Direktiv nutqiy akt so‘zlovchining adresatni muayyan bir harakat qilishga undashi bo‘lganligi sababli uni lingvistikada grammatik jihatdan buyruq maylidagi gaplarga xoslasak to‘g‘ri bo‘ladi. Kommunikativ vazifasiga ko‘ra iltimos, maslahat, buyruq ma‘nolari ifodasini anglatadi. Buyruq gaplar harakatni bajarmaslik haqida buyurish, undash, istak kabi ma‘nolar ifodalovchi mayl(buyruq-istak mayli)ga ham ega. Buyruq gaplar orqali so‘zlovchi o‘z xohish-istagini, adresatdan nima xohlayotganligini ta‘kidlaydi, bu harakat to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq, xushmuomalalik ila iltimos ohangida yoxud biror xatti-harakatga ishora ko‘rinishida yangraydi.

Buyruq direktivlar tarkibida o‘zbek tilida “sen” yoki “siz” tushirib qoldirilgan bo‘lishi mumkinki, agarda gap uchinchi shaxsga qaratilgan bo‘lsa, u holda “u” olmoshi yoki uning o‘rniga ot bilan ifodalanishi mumkin. Ya‘ni: *To‘g‘ri uyga borsin. Bola to‘g‘ri uyiga borsin.*

E.I.Belyayevaning fikriga ko‘ra, biz ko‘rsatmalarning suhbatdoshga ta‘siri bo‘yicha uch turini ajratamiz: adresatning harakatlarini belgilaydigan buyruqlar (buyruq, ruxsat, taqiq, ko‘rsatma); so‘zlovchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishga undaydigan so‘rovlar (so‘rov, ibodat va taklif); maslahat (maslahat, taklif va ogohlantirish)ni ifodalovchi takliflar. Muloqotchilarning nutqiy o‘zaro ta‘sirida so‘zlovchining ijobiy

noverbal reaksiyasi suhbatdoshning nutq tashabbusiga jimgina bo'ysunadigan tinglovchining samarali noverbal xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Taklif etilgan vaziyatda qabul qiluvchining og'zaki bo'lmagan munosabati muloqot qiluvchilar o'tasidagi qulay ijtimoiy masofani ko'rsatadi: "Meni o'sha joyda kutib turing", ijobiy xarakterdagi og'aki bo'lmagan perlokutiv ta'sir takliflarga aks ta'sir sifatida ham kuzatiladi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ijobiy og'zaki bo'lmagan nutq reaksiyasi barcha uch turdagi ko'rsatmalar, so'ovlar va takliflarga javob sifatida xizmat qilishi mumkin. Og'zaki bo'lmagan ijobiy reaksiyadan farqli o'laroq, bu holda adresat jimgina rad etadi. Direktiv nutq aktlarining perlokutiv ta'siri so'rov yoki buyurtmani bajaradi, taklif yoki iltimosnomaga javoban hech qanday javob qilmaydi, suhbatdoshning ogohlantirishiga javobdan qochadi.

Buyruq mayli shakllarining grammatik ma'nosi turtki beruvchi gaplarning doimiy qiymati bo'lib, u shartli ravishda ikki shaxsdan, ya'ni so'zlovchi va suhbatdoshdan iborat bo'ladi. Fe'ning buyruq mayli semantik tarkibida muayyan nutqiy vaziyatda shakllangan o'zgaruvchan qiymat uning leksik ma'nosini belgilaydi.

Direktiv nutq aktlari turli leksik vositalar yordamida hosil qilinishi mumkin bo'lib, biz quyida ularga to'xtalib o'tamiz. Direktiv nutqlar nafaqat 2-shaxsga qaratilgan, balki 1- hamda 3-shaxsga ham qaratilgan bo'lishi mumkin, aynan shu jihatiga qarab direktiv nutqiy aktlari quyida biz sanab o'tadigan leksik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin.

O'zbek tilida ayniqsa, ma'no kuchaytiruvchi leksik vositalar mavjud bo'lib, ular so'zlovchi tomonidan uzatilayotgan kommunikativ intensiyaning kelasida albatta bajarilishi, aynan tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi yoki bajarish taqiqlanishi kabi turli semantik ma'nolarni kuchaytiradi:

1. Hargiz, aslo, hech, endi kabi inkor yuklamalar yordamida

Yo'q, aslo bunday deb o'ylamang. Umidsizlik menga begona. (X. To'xtaboyev, "Sehri qalpoqcha", 41-bet)

— *O'zimdan o'tgan, amma, — dedi. — Endi... og'alarimizga ayting, adovatni bas qilsinlar. Shu ikki og'a yarashsa, biz ham tinchir edik.* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 121-bet)

Hargiz, aslo, hech, endi, endi boshqa kabi taqiq ma'nosini kuchaytiruvchi inkor yuklamalar kelasida tinglovchining so'zlanayotgan nutqdagi harakatni aslo amalga oshirish mumkin emasligi haqida ogohlantiradi va shu sababli ham direktivlik mazmuni eksplitsit tarzda yangraydi.

2. Kerak, shart, lozim, mumkin, mayli kabi bog'lanmalar yordamida

— *Qorachaxon yolg'iz emas, biz ham ko'pchilik bo'lib bormog'imiz lozim! — dedi Humoyun.* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 137-bet)

— *Biror soatlardan keyin kirib ko'rishlaring mumkin, - shunday deb doktor amaki chiqib ketdi.*

— *Ammo shamol bo'lmasa terakning uchi qimirlamagay, amirzodam! Kobulga tezroq etib bormog'imiz shart!* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar", 180-bet)

Kerak bog'lanmasi odatga ko'ra xatti-harakat amalga oshirilishi yoki aksincha bajarilmasligi to'g'ri ekanligini bildirsa, shart uning majburiyligi, lozim tavsiya qilinishi, mumkin va mayli so'zlari esa vaziyatdan kelib chiqib, ruxsat etilganlik hamda ish-harakatning u qadar ahamiyatli emasligi haqida xabar beradi. Demak, pragmatik jihatdan ushbu vositalar so'zlovchi fikrini implitsit tarzda namoyon etish uchun xizmat qiladi desak xato bo'lmaydi.

3. Direktiv qaratilgan shaxs olmoshini ta'kidlash orqali;

Sen temuriyodalarning urug'ini qurit! O'shalarga xizmat qilib quturgan shialarni bos! (P.Qodirov, «Yulduzli tunlar», 191- bet)

Askariy haj yo'lida vafot etgani yetar. Endi siz Kobulda qoling. (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 141-bet)

Sen nega o'ringa bormaysan yozda,

Yoki sen otangni o'gay o'g'lisan?!

So'ksa indamaysan, qo'yimi - to'qlisan,

Ursa yig'lamaysan, demak - o'g'risan!

Sahardan shomgacha mo'ltirab,

ko'zing ko'rmay qolgunicha chopding dalangni. (M.Yusuf, she'rlar, 29-bet)

4. Direktiv yo'naltirilgan shaxsning ismini, kimligini ko'rsatib o'tish, ya'ni undalma orqali:

— *Hoshimjon, chiq, o'g'lim, o'rtoqlaring keldi, — deb qistadi, — lager qurilayotgan joyga borib, tosh terarmishsizlar.* (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 174-bet)

— *Taqsir, kimga tasaddiq qilaylik?— deb so'radi.* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar", 299 bet)

Direktiv nutqiy akt qaratilgan shaxs olmoshi, yoki uning ismi keltirilgan jummlar nafaqat eksplitsit buyruqni ifodalaydi, balki ko'zlangan ish-harakatning aynan kimga qaratilganligini ham aniq aks ettiradi. Va tabiiyki, bunday buyruqlar eksplitsit mazmun-mohiyatni ifodalaydi.

5. U, bu, shuni, shunday, buni, bunday ko'rsatish olmoshlari yordamida

— *Mana bu siz qurishingiz kerak bo'lgan 71-uyning proekti,— dedi devoriy gazetaga ishlatiladigan qalin qog'ozni qo'limga berib,— mana bu esa, azizim, genplan.* (X.To'xtaboyev. "Sehrli qalpoqcha", 63-bet)

— *Begona deyishadi-ku.*

— *Begona bo'lsa, bizning ovulga kelarmidi?*

— *Shuni ayt-a?* (Ch.Aytmatov, "Jamila", 8-bet)

She'rim o'tmadi, bahosi ikki pul bo'ldi. Lekin men umidsizlikka tushganim yo'q. Yo'q, aslo bunday deb o'ylamang. (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 42-et)

— *Ma, topgan matoyingni boshingga ur! Brigadiringga aytib qo'y, ikkinchi marta bunday qoplarni bera ko'rmasin, — deb haligi yirtilgan qop parchalarini tarozibonning oldiga otib yubordi.* (Ch.Aytmatov, "Jamila", 15-bet)

Ko'rsatish olmoshlari qatnashgan direktivlar suhbatdoshiga yengillik yaratish maqsadida, aynan qaysi ish-harakat yoki aynan qay tarzda uni amalga oshirish kerakligi haqida so'zlaydi. Shu sababli ham, bunday direktiv nutqiy aktlarni pragmatik jihatdan eksplitsit tarzda ifodalangan deb o'ylash o'rinlidir.

6. Yaxshisi, aslida ravishlari orqali

— *Yaxshisi, uni darrov qo'yib yubor, onasi izlab kelib hammamizni nobud qiladi. — dedi Inobat onam tashvishlanib.* (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 203-bet)

— *Xo'sh, taqdir, bu qanaqasi bo'ldi? — deb so'radi ziyoratchilardan biri Bodom qori amakimdan.*

— *Men... yo'g'-e, yaxshisi, mullo Danak gapirsinlar, — orqaga tisarildi qori amakim, — bu kishi Uzunquloq pirimning avlodi bo'ladilar...* (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 169-bet)

Yaxshisi, aslida kabi ravishlar so'zlovchi uzatayotgan fikrni tavsiya-maslahat sifatida ifodalaydiki, uning amalga oshirilishi adresantdan ko'ra adresatga ko'proq foydali ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, tavsiya, maslahat tarzida eksplitsitlik xususiyatiga egadir.

7. Ma'qul ravishi orqali

— *Shoshmaganingiz ham ma'qul, — dedi. — Inshoollox, sherqizga munosib arslon yigit uchrab qolgay.* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 6-bet)

— *Mayli, gazetada rasm bo'lgani ma'qul, — qo'lini siltab qo'ydi Akrom tog'a.* (X.To'taboev, "Sariq devni minib", 226-bet)

— *Ota-onalar hayotmi?*

— *Hayot, otaxon, hayot.*

— *Barakalla. Ularning davrida u yoq-bu yoqni ko'rib olganingiz ma'qul.* (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 31-bet)

Yaxshisi, aslida kabi ravishlar singari *ma'qul* so'zi ham direktivlarning qat'iy buyruq berishidan holi bo'lib, tavsiya tarzda namoyon bo'ladiki, bunday nutqni pragmatikasiga ko'ra, implitsit deb aytish mumkin.

8. Faqat yuklamasi vositasida

Men sizdan rozimen... faqat endi meni hazratim demang... (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar", 302-bet)

Faqat sen o'z xatoingni tushunib olgin dedim. (X.To'xtaboyev. "Sehrli qalpoqcha", 74-bet)

Faqat azizim Ro'ziyev, ishga qachon tushmoqchisiz? Shuni aytsangiz bas. (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib", 64-bet)

Faqat yuklamasi adresantning tinglovchining iltimosiga ko'ra, hech qanday ish-harakat bajarmasa ham birgina iltimosini amalga oshirishini so'rash, iltimos qilish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun, bunday direktivlar to'g'ridan to'g'ri tinglovchiga yo'llanganligi tufayli pragmatik eksplikaturani yoritadi.

1. -jadval. Direktiv nutqiy aktlarning leksik vositalar orqali ifodalanishining pragmatik tahlili

Til	Leksik vosita turi	Eksplikatura	Implikatura
O'zbek tili	Hargiz, aslo, hech	+	
	Kerak, shart, lozim, mumkin, mayli		+
	Direktivlar qaratilgan shaxs olmoshi	+	
	Direktivlar qaratilgan shaxs ismi	+	
	U, bu, bunday, shunday olmoshlari		+
	Yaxshisi, aslida ravishlari	+	
	Ma'qul		+
	Faqat	+	

1- jadvalda keltirilgan tahlillarimizdan kelib chiqib shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ingliz va o'zbek tilida ham birdek direktiv nutqiy aktlarning leksik vositalar orqali ifodalanishi asosan eksplitsit ma'noga ega bo'ladi.

Direktiv aktlar turli intonatsiya bilan talaffuz etiladi, kuchli hayajon, do'q, g'azab, qat'iy buyruq kabi ma'nolarni ifodalagan direktivlarda intonatsiya kuchli; maslahat, iltimos, gumon ma'nolari ifodalangan gaplarda oddiy, o'rtacha darajada bo'ladi. Bundagi intonatsiyaga nisbatan tashviq, orzu ma'nolari anglashilgan gaplarda u biroz pastroq ohangda bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, direktiv nutqiy aktlar leksik vositalar yordamida ifodalanganda aksariyat hollarda eksplitsit tarzda namoyon bo'ladi ya'ni ushbu vositalarning jumladagi ishtiroki uning bevosita direktiv nutqiy akt ekanligini anglab yetish uchun xizmat qiladi. "*Hargiz, aslo, hech*" kabi leksik birliklarning har ikki tilda ham qo'llanilishi ushbu tillarda direktivlar hosil bo'lishining o'xshash jihati bo'lsa, ingliz tilida asosan performativ fe'llar yordamida direktiv nutqiy aktlar ifodalangan holatda o'zbek tillardagi leksik vositalarning aksariyati yuklama hamda bog'lanmalar yordamida tuzilishi ushbu tillardagi farqni namoyon etadi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan misollarni chuqur tahlil qilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, direktiv nutqiy aktlarni hosil qilish uchun grammatik vositalar asosiy rolda bo'lsa, leksik vositalar ularning semantik hamda pragmatik xususiyatlarini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika //Toshkent: Uzme. – 2008. – T. 255
2. Austin J. L. How to do things with words. – Harvard university press, 1975.

3. Chiesa D. L. et al. Reconceptualizing language teaching: An in-service teacher education course in Uzbekistan. – 2019.- 210 p.
4. Беляева Е. И. Грамматика и прагматика побуждения: английский языкв. – 1992.- 168р.
5. Капитонова И.В. Перлокутивный эффект директивных речевых актов в конвенциональном межличностном общении //Вестник Волгоградского университета. Серия 2: Языкознание. – 2013. – №. 1. – С. 164-169.
6. То‘xtaboyev X. «Sariq devni minib». Toshkent “Yangi asr avlodi” 2010. -236 b.
7. Qodirov P. Avlodlar dovoni. <http://www.ziyouz.com/2008>. -328 b.
8. Qodirov P. Yulduzli tunlar <http://www.ziyouz.com/2008>. -304 b.
9. Yusuf M. She’riy to‘plam. “Sharq”. –Toshkent: 2007. -367 b.
10. Aytmatov Ch. Jamila. G‘afur G‘ulom, 2005. - 31 b.

